

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUYONCHILIK MAHSULOTLARINI
KO'PAYTIRISHNING AHAMIYATI**

Yuldashev D.K.

q.x.f.n., k.i.x. SPIN- 6068-6002, Orcid: 0000-0001-9326-3229.

uzkronvetservis@mail.ru

Ruziev R. I.

q.x.f.n., k.i.x. quyon_sgm@mail.ru

Quyunchilik seleksiyasi va genetika Markazi, Toshkent viloyati, Qibray t.

**ЗНАЧЕНИЕ УВЕЛИЧЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКТОВ
КРОЛИКОВОДСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

Юлдошев Д.К.

к.с.х.н., ст.н.с. SPIN- 6068-6002, Orcid: 0000-0001-9326-3229.

uzkronvetservis@mail.ru

Рузиев Р.И.

к.с.х.н., ст.н.с., quyon_sgm@mail.ru

Центр селекции и генетики кролиководства, Ташкентская область, Кибрайский р.

**THE IMPORTANCE OF INCREASING PRODUCTION OF RABBIT PRODUCTS
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Yuldoshev D.K.

Ph.D. in Chemical Sciences, Senior Researcher SPIN- 6068-6002, Orcid: 0000-0001-9326-3229.uzkronvetservis

Ruziev R.I.

@mail.ru

Ph.D., Senior Researcher, quyon_sgm@mail.ru

Center for selection and genetics of rabbit breeding, Tashkent region, Kibray.

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekistonda quyunchilikning ahvoli haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Har qanday davlat, jumladan, O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda quyunchilikning rolini tavsiflashga alohida e'tibor qaratilgan. Quyonlarning umumiy soni bo'yicha statistik ma'lumotlar berilgan. O'zbekistonning issiq iqlimi sharoitida quyunchilikning o'rni va quyonlarni boqish texnologiyasi baholangan. "Broyler quyonlarining duragay avlodlarini yaratish" va "O'zbekistonda quyunchilikni intensiv ko'paytirish texnologiyalarini yaratish" bo'yicha ikkita innovatsion loyihalari*

haqida ma'lumot berilgan. O'zbekistonda go'shtli chorvachilik tarmog'i va aholi uchun zarur bo'lgan parhez go'shtning eng qimmatli manbai sifatida quyunchilikning istiqbollari asoslab berilgan. Ilmiy-texnika taraqqiyotining omillari va quyunchilikni rivojlantirish masalalari majmuasidan tizimli foydalanish masalalari keltirilgan. Quyunchilikning rivojlanishi uning biologik xususiyatlari, naslchilik va parvarishlashning mavjud usullari, kelib chiqishi va erta yetukligi hamda yuqori mahsuldorligiga ko'ra iste'mol qilishga islom ruxsati berilgani bilan istiqbolligi asoslangan.

Tayanch iboralar: chorvachilik, quyunchilik, mahsuldorlik, oziqlantirish, biologik xususiyatlari, istiqboli.

Аннотация. В статье дается общий обзор состояния кролиководства в Узбекистане. Особое внимание уделяется характеристике роли кролиководства в продовольственной безопасности любой страны и в том числе Узбекистана. Даны статические данные по общему поголовью кроликов. Оценена роль кролиководства, технологии выращивания кроликов в условиях жаркого климата Узбекистана. Сообщено о 2 инновационных проектах: «Создание гибридных поколений кроликов - бройлеров» и «Создание технологий акселерационного кролиководства Узбекистана» центром селекции и генетики кролиководства. Обосновано перспективность кролиководство в Узбекистане как отрасль мясного животноводства и как ценнейшего источника диетического мяса необходимого для населения. Даны факторы научно-технического прогресса и системного использования комплекса вопросов развития кролиководства. Развитие кролиководства является многообещающим из-за его биологических особенностей, существующих способов разведения и выращивания, разрешения исламом на употребления по происхождению и скороспелости и высокой производительности.

Ключевые слова: животноводство, кролики, продуктивность, кормление, биологические особенности, перспектива.

Annotation. The article provides a general overview of the state of rabbit farming in Uzbekistan. With special attention paid to characterizing the role of rabbit farming in the food security of any country, including Uzbekistan. Static data on the total number of rabbits is given. The role of rabbit breeding and the technology of raising rabbits in the hot climate of Uzbekistan is assessed. Two innovative projects were reported: "Creation of hybrid generations of broiler rabbits" and "Creation of technologies for accelerated rabbit breeding in Uzbekistan" by the center for breeding and genetics of rabbit breeding. The prospects of rabbit breeding in Uzbekistan as a branch of beef cattle breeding and as the most valuable source of dietary meat necessary for the population are substantiated. The factors of scientific and technological progress and the systematic use of a complex of issues in the development of rabbit breeding are given. The development of rabbit breeding is promising due to its biological characteristics, existing methods of breeding and rearing, Islamic permission for consumption based on origin and early maturity and high productivity.

Key words: *livestock breeding, rabbits, productivity, feeding, biological features, perspective.*

Chorvachilik har qanday mamlakatda, jumladan, O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jaligining mashhur tarmoqlaridan biridir. O‘zbekiston uchun chorvachilik qishloq xo‘jaligi sanoatining yetakchi yo‘nalishlaridan biridir. Bu bir tomondan, aholining qimmatbaho chorvachilik va parrandachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining bir qismini – oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlasa, ikkinchi tomondan, mamlakat aholisining mehnatga layoqatli qismini ish bilan ta‘minlaydi. Ayni paytda O‘zbekistonning qorako‘l terilari, tovar va inkubatsiya tuxumlari, parranda go‘shiti kabi mahsulotlari qo‘shni davlatlar bozorlariga eksport qilina boshladi.

O‘zbekistonda quyunchilik yoshlar va qarilar uchun zarur bo‘lgan parhez go‘shitning qimmatli manbai sifatida go‘shitli chorvachilikning istiqbolli tarmog‘iga aylanishi mumkin. Tarix rivoji 40 yildan ko‘proq vaqt oldin Butunjahon quyon yetishtiruvchilarining 1984 yil Rimdagi kongressida e‘lon qilingan “Quyon insoniyatning kelajakdagi ozuqasidir” shiorni bugun kunlik haqiqatga aylinib bormoqda[3,6].

Hozirda O‘zbekistonda aholi sonining o‘shish sur‘ati kuniga 2000 dan ortiq yoki yiliga 730 mingga yaqinni tashkil etmoqda. Demografik prognozlarga ko‘ra, 2041 yilga borib u 50 milliondan ortiq kishiga etadi [2,6]. Aholining bunday rivojlanishi bilan oziq-ovqat iste‘moli, xususan, chorvachilik va parrandachilikning o‘shishi 40% atrofida bo‘lishini taxmin qilish mumkin. Hozirgi vaziyat chorvachilik, jumladan, quyunchilik mahsulotlari yetishtirishni tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan quyon ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish dolzarbdir.

Har qanday davlatning oziq-ovqat xavfsizligi bu davlatning bir necha quyudagi asosiy omillariga asoslanadi:

1. **Oziq-ovqat mahsulotlari miqdorlarini ishlab chiqarish:** Mamlakat aholisining ehtiyojlarini qondirish uchun etarli miqdorda oziq-ovqat ishlab chiqarish qobiliyati oziq-ovqat xavfsizligining asosiy jihati hisoblanadi. Bu oziq-ovqat ekinlarning, chorvachilikning xilma-xilligi;

2. **Etarlicha oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lish:** ijtimoiy mavqei va yashash joyidan qat‘iy nazar aholining barcha qatlamlari uchun etarlicha oziq-ovqat mavjud bo‘lishi va ulardan har qanday vaqtlarda foydalanish. Bu barcha aholi yashash joylarida oziq-ovqat mavjudligi, shuningdek, oziq-ovqat narxlari ustidan nazoratni o‘z ichiga olishi lozimligi.

3. **Oziq-ovqatlarning xavfsizligi:** Oziq-ovqat xavfsizligi va sifatini ta‘minlash, turli kasallikning oldini olish va aholi salomatligini ta‘minlash uchun juda muhimdir. Bu ishlab chiqarish, qayta ishlash, tashish va tarqatish jaroyonlarining barcha bosqichlarida xom-ashyo mahsulot sifati va xavfsizligini nazorat qilish choralari o‘z ichiga oladi.


4. **Ta‘minot barqarorligi:** Oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat ta‘minoti barqarorligi omiliga ham bog‘liq. Bu shuni anglatadiki, mamlakatdagi oziq ovqat bozori har

qanday o'zgaruvchanligida, tabiiy ofatlar yoki boshqa omillar sharoitida ham uzluksiz ta'minlash mexanizmlari mavjud bo'lishi kerak.

5. **Iqtisodiy qulaylik:** Oziq-ovqat mahsulotlari aholi uchun iqtisodiy jihatdan har qanday bozordan sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu aholi daromadlari, bozor tuzilishi va muqobil oziq-ovqat manbalarining mavjudligi bilan bog'liq.

6. **Mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va boshqaruv:** oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sog'lom boshqaruv va siyosiy barqarorlik ham muhim o'rin tutadi. Bu qishloq xo'jaligi barqarorligini saqlash, bozorlarni tartibga solish va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun resurslar mavjudligini ta'minlashga qaratilgan siyosatni o'z ichiga oladi.

Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanish sur'atlarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyonlar soni 2015-yildan 2023-yilgacha 2,77 martaga oshganligini ko'rishimiz mumkin (1-rasm). 2023 yilda hayvonlar sonining 25,6 ming boshga kamayishi respublikada ob-havoning anomal sovuq bo'lishi bilan bog'liq.



11 rasm. Quyonlarning 1- yanvarga umumiy bosh soni dinamikasi

Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarda quyonlar seleksiya yo'lga qo'yilgan, ixtisoslashtirilgan liniyalar va naslchilik dasturlari yaratilgan. Quyonlar mahsulotlarini ishlab chiqarishni rag'batlantirish va reklama qilish, shuningdek, sohaning muvaffaqiyatli ishlashi bilan bog'liq barcha narsalarni marketingni ta'minlaydigan tarmoq axborot tizimi shakllantirilgan va tizim qanchalik mukammal bo'lsa, iste'molchilar talablarini o'zgarishiini hisobga olgan holda yakuniy mahsulot sifatiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Ushbu rivojlanish tajribasi O'zbekistonda ham qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-avgustdagi "Respublikada quyonchilik sohasida ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 647-son qaroriga muvofiq "Seleksiya markazimiz va quyonchilik genetikasi" ilmiy-tadqiqot instituti chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratildi va bu ishlarni olib borish ilmiy asoslarda rivojlanish ta'minlanmoqda.

Hozirda Markazda jami 16 nafar xodimdan iborat 4 ta bo'lim mavjud. Markaz tashkil etilganidan buyon 2 ta innovatsion loyiha: "Broiler quyonlarining duragay avlodlarini

yaratish” va “O‘zbekistonda jadallashtirilgan quyonchilik texnologiyalarini yaratish” loyihasini amalga oshirib kelmoqda. Loyihalar doirasida mahalliy va xorijdan keltirilgan Kaliforniya, Flandriya kabi quyon zotlari bilan tajribalar o‘tkazilmoqda. Aholi o‘rtasida quyonlarga qiziquvchilarni ilmiy asoslarda ishlarini tashkillashtirish uchun quyonchilik bo‘yicha o‘zbek tilida monografiyalar, 50 dan ortiq maqolalar chop etilgan. 2024-yilda 2 nafar doktorant tayyorlana boshladi.

Quyonchilik har qanday mamlakatga ko‘p foyda keltirishi mumkinligi va erishilgan natijalar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. **Tez ko‘payish va yuqori mahsuldorlik:** quyonlar yuqori ko‘payish tezligiga va tez jinsiy voyaga etishi bilan tasniflanadi. Quyonlarning bu hususiyatlari ularni go‘sht va terisi, momig‘i uchun tez ko‘paytirish, yetishtirishni doimiy ravishda olib borish imkonini beradi.

2. **Resurslardan samarali foydalanish:** Quyonlarni cheklangan hududda o‘stirilish, ko‘paytirish, yetishtirish mumkin. Bunda quyonlar qoramol kabi boshqa hayvonlarga qaraganda kamroq resurslarni (oziq ovqat, suv, joy) talab qiladi.

3. **Yuqori sifatli go‘sht va boshqa mahsulotlari:** quyon go‘shiti allergeni yo‘qligi, noyob hayvonlar oqsilining manbai, kam yog‘li va past xolesteringa egaligi bilan mashhur. Bundan tashqari, quyon terisi va momig‘i turli tabiiy mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin.

4. **Aholi va fermerlar uchun qo‘shimcha daromad manbalari:** Quyonchilikni ayniqsa qishloq joylarda, kichik yerlarda qo‘shimcha daromad manbai sifatida yetishtirish mumkin.

5. **Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish:** quyonchilikni rivojlantirish mamlakat qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilishga, chorvachilikning an‘anaviy turlariga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi.

6. **Atrof-muhit foydalari:** Quyonlar barqaror qishloq xo‘jaligi tizimlarining bir qismi bo‘lishi mumkin, chunki ular kamroq issiqxona gazlarini ishlab chiqaradi va qoramollarga qaraganda kamroq suv va ozuqa iste‘mol qiladi.

7. **Eksport salohiyati:** Quyonchilikning rivojlanishi bilan mamlakat quyon go‘shiti va boshqa mahsulotlarni eksport qilishda foydalanishi mumkin, bu esa valyuta tushumini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, quyonchilik O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jaligi strategiyasining muhim qismi bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va aholi va fermerlar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligining 2015-2023 yillar byullitenlari.
2. V. I. Komlatskiy, S. V. Loginov, G. V. Komlatskiy, Ya. A. Ignatenko. Samarali quyunchilik Krasnodar: KubGAU, 2013. - 224 p.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-avgustdagi “Respublikada quyunchilik sohasida ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 647-son qarori.
4. D.K. Yo‘ldoshev, R.Ro‘ziyev “Flandriya va Kaliforniya quyunchilik zotlarining duragaylarini yaratish loyihasi haqida. Manba: Turk dunyosining atoqli adibi Chingiz Aytmatov tavalludining 95 yilligiga bag‘ishlangan “Turkiy xalqlar birligi – Turon” xalqaro ilmiy simpoziumi materiallari. ISBN: 978-625-00-1825-5, 342-349 b.
5. Hamroyeva, O. F., & Alijonova, F. A. (2023). IQTISODIY RIVOJLANGAN DAVLATLARDA TA'LIM JARAYONINIG RIVOJLANISHI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 26-32.
6. Hamrayeva, O. F., & Yo‘ldasheva, F. R. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASIDA EKOLOGIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 37-40.
7. Hamrayeva, O. F., & Boltaboyev, N. (2023). TA'LIM JARAYONLARIDA O'QUVCHILARDA KOMUNIKATIV KOMPITENTLIKNI TAKOMILLASHTRISH. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 41-45.
8. Juraali o‘g‘li, F. N. (2023). ABDURAHMON JOMINING TALIMIY AXLOQIY QARASHLARI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 48-53.
9. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. JournalNX, 7(1), 311-314..
10. Ibragimovich, T. I. (2024). PEDAGOGICAL PROCESSES AND IMPORTANT ASPECTS OF ITS CREATION. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(1), 56-62.